СИСТЕМА ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ КАК КЛЮЧЕВОЙ ЭЛЕМЕНТ ФОРМИРОВАНИЯ «ЗЕЛЕНОЙ» ЭКОНОМИКИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1269
Махмудходжаева Луиза Сайфуллоевна	
IQTISODIYOTDA "YASHIL" MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANTIRISHNING XUSUSIYATLARI	1274
Risqibekova Nozimaxon	
THE ROLE OF DIGITAL MARKETING IN BOOSTING TOURISM-RELATED BUSINESSES	1280
Farrukh Mamadiyrov Shukhratovich	
MINTAQA IQTISODIY BARQARORLIGINI BAHOLASH INDIKATORLARI VA USLUBLARI	1284
Turdiyev Ulug'bek Qayumovich	
MAJOR INFLATIONARY FACTORS IN THE ECONOMY OF UZBEKISTAN AND ANTI-INFLATION POLICIES	1290
Koshanov Abdimurat Azat uli, Oralbaeva Diana Mukhit qizi	
ЦИФРОВАЯ ЭКОСИСТЕМА СОВРЕМЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА: МОДЕЛИ, МЕХАНИЗМЫ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ	1296
Бекова Азиза Алимовна	
SOLIQ MAJBURIYATLARINI HISOBGA OLISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1301
Abdullayev Abror Bozarboyevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AKSIZ SOLIINING FISKAL VA IJTIMOIIY ROLI	1308
Abdulxayeva Shaxnoza Muxammadiyevna	
MINTAQAVIIY IQTISODIYOTDA AGROTURIZMNI BAHOLASH USULLARI VA MEZONLARI	1314
Egamberdiyeva Umriniso Tursunqulovna, Ro'zmatov Boburjon Zafarjon o'g'li, Shodiyeva Nafosatxon Hamza qizi	
OLIY TA'LIMDAGI RAQAMLI YECHIMLARNING SAMARADORLIGI VA UNI BAHOLASH MEZONLARI	1320
Abduraxmanova Malika Abdujaparovna	
SURXONDARYO VILOYATI SHAROITIDA AKVAPARK VA SUZISH HAVZALARI QURILISHINI TAHLIL QILISH HAMDA TAVSIYALAR BERISH	1326
Olimjonov Firdavs	
FISKAL FEDERALIZM NAZARIYASI VA UNING AMALIY AHAMIYATI	1332
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Alijonov Ahadjon Hasanboy o'g'li	
OILAVIIY MUHITDA QIZLARNING EMOTSIONAL INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISH: IJTIMOIIY PEDAGOGIK YONDASHUV (O'ZBEKISTONDA)	1336
Qayimova Maftuna Tursunovna	
«YASHIL IPOTEKA» AMALIYOTI: XORIJIY TAJRIBALAR	1340
Berdinazarov Zafar Ulashovich, Xayitov Bobirbek Ergashevich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ ПРОЦЕССОВ ПРИНЯТИЯ СТРАТЕГИЧЕСКИХ РЕШЕНИЙ В ЭПОХУ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА. ФОРМИРОВАНИЕ НОВОЙ ПАРАДИГМЫ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ	1344
Бурханова Шахноза Бобировна	
QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORIDA TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI KENGAYTIRISH MASALALARI	1353
Abduvoxidova N.G'., Karimova A.M.	
ISHLAB CHIQARISHNI DIVERSIFIKATSIYA ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ASOSIIY MECHANIZMLARI	1359
Mirzarayimova Feruza Zokirjon qizi, Levakov Izzatulla Nematillayevich	



TO'G'RI SOLIQLARNI UNDIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH AMALIYOTI TAHLILI	1365
Xo'jaqulov Ramshid Yunusovich	
O'ZBEKISTONDA BANK TIZIMINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	1372
Kasimova Zilolaxon Botir qizi	
INNOVATSION FAOLIYATNI MOLIYALASHTIRISHNING IQTISODIY MAZMUNI VA TAMOIYILLARI	1379
Gafurov Ma'ruf Xakimovich	
KREDIT RISKI VA UNGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI	1383
Karimova Shohida Zaylobiddinovna	
SURXONDARYO VILOYATI TUMANLARINING IQTISODIY MODERNIZATSIYASI: ASOSIY OMILLAR VA TENDENSIYALAR.....	1389
Qosimova Nodira Saidovna	
BUXORO VILOYATIDA YASHIL AGROTURIZM KONSEPSIYASINI SHAKLLANTIRISH	1395
Umurov J.	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA DAROMADLAR VA ULARNI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI.....	1403
Ostonaqulova Gulchehraxon Muhammadyoqub qizi	
MINTAQADA KICHIK BIZNESNING EKSPORT SALOHİYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	1409
Raxmatullayev Umarbek Ulug'bekovich	
FERMERLAR KOOPERATSIYASI VA XALQARO BOZORLARGA KIRISH: O'TISH DAVRI IQTISODIYOTIDAN XULQ-ATVOR, DEMOGRAFIK VA INSTITUTSIONAL NUQTAI NAZARLAR.....	1415
Tursunqulov G'olib Shavkat o'g'li	
ERKIN IQTISODIY ZONALARNI KLASSTER ASOSIDA RIVOJLANTIRISH	1422
Mamadiyev Elyor Akmalovich, Sharipov K. A.	
КОРПОРАТИВНОЕ УПРАВЛЕНИЕ В АВТОМОБИЛЬНОМ СЕКТОРЕ УЗБЕКИСТАНА: СТРАТЕГИИ УПРАВЛЕНИЯ РИСКАМИ ДЛЯ УСТОЙЧИВОГО РОСТА И СОБЛЮДЕНИЯ РЕГУЛЯТОРНЫХ ТРЕБОВАНИЙ.....	1427
Шамсуддинов Шухрат Нематович	
ПУТИ ВНЕДРЕНИЯ И СТИМУЛИРОВАНИЯ ИННОВАЦИОННОГО ПОТЕНЦИАЛА НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ.....	1431
U. D. Gayratov	
O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASIGA BO'LGAN EHTIYOJ VA ZARURIYAT: UNING AHAMIYATI.....	1435
Sh.N.G'afforov	
MEHNAT RESURSLARINI BOSHQARISH VA UNI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI	1439
Uzoqov Lutfillojon Fayzullojonovich	
DAVLAT TOMONIDAN IQTISODIY NAZORATNING BOZOR BARQARORLIGINI TA'MINLASHDAGI ROLI: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA GLOBAL AMALIYOT TAHLILI	1443
Rasulev Alisher Fayziyevich. Karimov Ulug'bek Mirzajon o'g'li	
TASHQI DAVLAT QARZINING VALYUTA TUZILMASI VA UNING QARZ BARQARORLIGIGA TA'SIRI TAHLILI	1446
Sanakulova B. R., Jamolov M.M.	
ASOSIY MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLAR ORQALI DAROMADLAR O'SISHINI BAHOLASH METODOLOGIYASI.....	1452
Eshbaeva Shahnoza Faxriddinovna	
ЭКОНОМИКА УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ И ПРАКТИКА.....	1457
Рустамов Зокир Тоирович	
EKSPORT DIVERSIFIKATSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA AKT NING ROLI: RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLAR MISOLIDA	1461
Sadriddinov Ulug'bek Jaloliddin o'g'li	
ВЗАИМОСВЯЗЬ МЕЖДУ ИНВЕСТИЦИОННЫМИ ПОТОКАМИ И ИМПОРТОМ В УЗБЕКИСТАНА	1467
Рустамов Фозилжон	
ICHKI BOZORDA PARRANDA GO'SHTI MAHSULOTINING NARX BARQARORLIGI VA KELGUSI TENDENSIYALARINI EKONOMETRIK MODELLAR ORQALI BAHOLASH.....	1475
Jumayev Olimjon Sadulloyevich	



TIBBIY XIZMAT INFRATUZILMASINING FARG'ONA IQTISODIY RAYONIDA JOYLASHUV XUSUSIYATLARI.....	1483
Xolmirzayeva Zulayxo Axmadjon qizi	
TIJORAT BANKLARIDA MARKETING FAOLIYATINI BAHOLASH BO'YICHA METODOLOGIK YONDASHUVLAR ISHLAB CHIQISH.....	1488
Ibragimova Shaxlo Alimbayevna	
ENERGY TRANSITION DEBATE: ELECTRIC VEHICLES, OIL AND THE "GREEN" PARADOX.....	1492
Tokhirjonov Temurbek Alimardon ogli, Numonjon Malikov	
SANOATLASHUV NATIJASIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA AHOLI BANDLIGINING KAMAYISHI TAHLILI	1500
B.Beknazarov	
RESPUBLIKA TO'QIMACHILIK SANOATINING SHAKLLANISHI VA MUSTAQILLIK YILLARIDA RIVOJLANISHI.....	1505
Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich	
"YASHIL IQTISODIYOT" VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYANING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	1510
Qurbonov Shovqi Djurayevich	
THE ROLE OF ENVIRONMENTAL FACTORS IN THE COURSE OF ACUTE RHEUMATIC FEVER IN CHILDREN.....	1516
Kuldashev Sardor Furqatovich	
MOLIYAVIY INKLYUZIYA DARAJASINI BAHOLASHNING AXBOROT TIZIMI ASOSIDA MONITORING MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI.....	1520
Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o'g'li	
EKSPORT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSIYALARNING AHAMIYATI	1527
Sobirova Muxlisa	
MAHALLIY BUDJETLAR MUSTAQILLIGINI TA'MINLASHDA SOLIQ TUSHUMLARI VA TRANSFERTLAR NISBATINI OPTIMALLASHTIRISH.....	1531
Muxitdinov Sidikxo'ja Akobirxo'ja o'g'li	
BANK TIZIMI ORQALI YASHIL MOLIYANI RIVOJLANTIRISH: GREEN ADVISORY SERVICES XIZMATLARINING ZAMONAVIY AMALIYOTI.....	1537
Abdumutalova Gulrux Shuxratjon qizi	
ISLOMIY MOLIYA VA RAQAMLI BANK EKOTIZIMLARINING INTEGRATSIYASINING O'ZBEKISTONDAGI ISTIQBOLLARI	1544
Galatov Abbos Alibekovich	
AGROSERVIS XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI.....	1551
Abilov Feruz Nematullayevich	
TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA TIJORAT BANKLARI KREDITLARI AMALIYOTI BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARNI KAMAYTIRISH YO'LLARI	1554
Jabbarov Nodir Umirovich	
OLIY TA'LIM MALAKALARINI XALQARO TAN OLIISHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI: BOLONYA JARAYONI VA YUNESKO GLOBAL KONVENSIYASI QIYOSIY TAHLILI	1559
Saidov Muxammad Ali Hakimovich, Iminoxunov Abduqahhor Abduvohidovich	
IQTISODIY O'SISHNING NAZARIY ASOSLARI VA UNI BELGILOVCHI OMILLAR TAHLILI.....	1563
G'ulomjan Matkarimov	
O'ZBEKISTONDA MUZEY TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL YO'NALISHLARI.....	1568
Yulduz Urinbayeva	
DEVELOPMENT OF A METHODOLOGY FOR THE DIGITALIZATION OF TANGIBLE TECHNICAL ASSET INVENTORY IN THE DIGITAL ECONOMY.....	1573
Izzatilla Pulatov Quدراتillayevich	
THE IMPACT OF NATIONAL ECONOMY COMPETITIVENESS ON ECONOMIC GROWTH	1581
Siddikov Askar Axrorovich, Turapov Siroj Mamadoli o'g'li	



TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN AGRAR SEKTORNI MOLIALASHTIRISH TIZIMI TAKOMILLASHTIRISH YO'NASHISHLARI	1585
Azizov Shuxrat Maxmutovich	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI O'QITISHGA QARATILGAN LOYIHALARINI MOLIALASHTIRISH MEXANIZMLARI VA ULARNING SAMARADORLIK TAHLILI.....	1593
Rapiyev Alisher Parda o'g'li, Toshboyev Ikrom O'ktamovich	
MINTAQALARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA TADBIRKORLIK SALOHİYATI AHAMIYATINING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	1597
Madaminov Damir Abduraxmanovich	
АБСОРБЦИОННАЯ СПОСОБНОСТЬ И ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТЬ ТРУДА: МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ МЕЖСТРАНОВОГО АНАЛИЗА	1602
Султанова Л.Ш.	
KADRLAR MENEJMENTIDA MOTIVATSIYA TIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1607
Latipov Ashur Ali Rustam o'g'li, Xakimov Damir Ulug'bekovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHI VA MILLIY IQTISODIY STRATEGIYAGA TA'SIRI.....	1612
Artikova Shoxida Ilyasovna, Xakimov Damir Ulug'bekovich	
"YASHIL" IQTISODIYOT TAMOIYILLARI ASOSIDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH YO'LLARI.....	1616
Rustamov Narzillo Istamovich	
KATTA HAJMDAGI MA'LUMOTLAR (BIG DATA) ORQALI EKOLOGIK VA IQTISODIY JARAYONLARNI OPTIMALLASHTIRISH.....	1621
Mullajonova Fotima Tuychibayevna	
ТОРГОВЫЙ БАЛАНС МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И КИТАЕМ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ЭКОНОМИКУ: АНАЛИЗ ОТРАСЛЕЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	1627
He Xiaogu, Urkinbaev T. A.	
РЕЙТИНГОВАЯ ОЦЕНКА ЭКОЛОГИЧЕСКИХ АСПЕКТОВ ДЛЯ ДАЛЬНЕЙШЕГО РАЗВИТИЯ «ЗЕЛЕННОЙ» ЭНЕРГЕТИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	1632
Тураева Сурия	
HUDUDLARNI IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA ERKIN IQTISODIY HUDUDLARNING O'RNI	1641
N. Tursunov	
ВНЕДРЕНИЕ ИНСТРУМЕНТОВ НЕЙРОМАРКЕТИНГА В В2В- И В2С-СЕКТОРАХ ПЛОДООВОЩНОЙ ИНДУСТРИИ.....	1646
Садий Шукрилло Асатилло угли	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ В ПРИВЛЕЧЕНИИ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ	1653
Qian Xuanhong, Вохидова Мехри	
MAHALLALARDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH — KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA.....	1659
Xolmuratov Salimbek Eshbekovich	
DAVLAT QARZLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	1663
Valiyeva Gulxayyo, Samandarova Gulmira	
YASHIL TURIZMNING MOHIYATI VA UNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	1666
Qurbanbayev Shuhrat Bakbergenovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA ISLON BANKLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	1670
S. Sayfullayev	
IT LOYIHALARINI BOSHQARISHNING TASHKILIY JIHATLARI	1675
Mansurova Bibinur Miyirbek Qizi	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSIYA SIYOSATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	1679
Babaeva Nargiza Muzafarovna	
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH DASTURLARINI BAJARILISHIDA MOLIAVIY SIYOSAT DOIRASIDA MOLIAVIY DASTAKLARDAN FOYDALANISHDAGI TENDENSIYALAR TAHLILI	1686
Mirzaxalikov Bobir Baxtiyorovich	



KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH DASTURLARINI BAJARILISHIDA MOLIYAVIY SIYOSAT DOIRASIDA MOLIYAVIY DASTAKLARDAN FOYDALANISHDAGI TENDENSIYALAR TAHLILI

Mirzaxalikov Bobir Baxtiyorovich

Namangan davlat texnika universiteti
Buxgalteriya hisobi kafedrası dotsenti, i.f.d.

Annotatsiya. Maqola kambag'allikni qisqartirish dasturlarini bajarilishida moliyaviy dastaklardan foydalanish mexanizmining konseptual asoslari o'rganishga bag'ishlangan. Kambag'allikni qisqartirish dasturlarini bajarilishida qo'llanadigan asosiy moliyaviy dastaklar, moliyaviy dastaklardan foydalanishning institusional jihatlarini, kambag'allikni qisqartirishni davlat byudjetidan moliyalashdagi muammolar va Namangan viloyatida kambag'allik darajasining 2025-2027-yillarga mo'ljallangan o'rta muddatli prognoz ssenariylari ko'rsatib o'tilgan va ilmiy takliflar, amaliy tavsiyalar keltirgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy dastaklar, kambag'allikni qisqartirish dasturlari, davlat byudjeti, moliyalashtirish manbalari, kambag'allik, kambag'allik darajasi, iqtisodiy o'sish, moliyaviy siyosat, ijtimoiy nafaqa, moddiy yordam, ijtimoiy siyosat, kambag'allik chegarasi, inson farovonligi, taraqqiyot strategiyasi, o'rta muddatli prognoz.

Abstract. This article examines the conceptual foundations of the mechanism for using financial leverage in implementing poverty reduction programs. The article presents institutional aspects of the use of financial instruments, the problems of funding poverty reduction measures from the state budget, and medium-term poverty forecast scenarios in the Namangan region for 2025-2027. Research proposals and practical recommendations are presented.

Key words: financial levers, poverty reduction programs, state budget, sources of financing, poverty, poverty level, economic growth, financial policy, social benefits, material assistance, social policy, poverty line, human well-being, development strategy, medium-term forecast.

Аннотация. Статья посвящена изучению концептуальных основ механизма использования финансовых рычагов при реализации программ по сокращению бедности. В статье изложены институциональные аспекты использования финансовых инструментов, проблемы финансирования мер по сокращению бедности из государственного бюджета, а также среднесрочные прогнозные сценарии уровня бедности в Наманганской области на 2025-2027 годы. Представлены научные предложения и практические рекомендации.

Ключевые слова: финансовые рычаги, программы сокращения бедности, государственный бюджет, источники финансирования, бедность, уровень бедности, экономический рост, финансовая политика, социальные льготы, материальная помощь, социальная политика, черта бедности, благосостояние человека, стратегия развития, среднесрочный прогноз.

KIRISH

O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish dasturlarini tartibga solishda moliyaviy siyosatning metodologik asoslaridan foydalanish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Bu yo'nalish samarali makroiqtisodiy siyosatni yuritish, barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash hamda tadbirkorlik muhitini yaxshilash orqali mamlakatda kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan maqbul davlat siyosatini amalga oshirish tizimini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Mazkur tizim amaliyotda muvaffaqiyatli tatbiq etilmoqda.



Kambag'allikni qisqartirish dasturlarining moliyaviy resurslar bilan ta'minlanishi va ularning amalga oshirilishi harakatdagi moliyaviy munosabatlar tizimi doirasida va uning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu moliyaviy munosabatlar tizimining mazmuni va yo'naltirilganligini moliyaviy siyosat belgilab beradi. Moliyaviy siyosatning muhim vazifalaridan biri iqtisodiy o'sish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bilan bir qatorda aholining turmush darajasini oshirishdan iboratdir.

Moliyaviy siyosatni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari soliq siyosati, byudjet siyosati hamda pul-kredit siyosatini o'z ichiga oladi. Ushbu yo'nalishlarning har biri turli moliyaviy dastaklardan foydalanishga asoslanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy adabiyotlarda kambag'allik muammosi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning murakkab va ko'p qirrali hodisasi sifatida talqin qilinadi. Tadqiqotlarda kambag'allikni baholashning mutlaq, nisbiy va subyektiv yondashuvlari keng qo'llanilib, ularning har biri muammoning turli jihatlarini aniqlash imkonini beradi. Xalqaro va mahalliy olimlar kambag'allikni qisqartirishda moliyaviy siyosat, xususan, soliq-byudjet va ijtimoiy transfertlar tizimining muhim rolini ta'kidlaydilar.

Adabiyotlarda moliyaviy qo'llab-quvvatlashning samaradorligi aholining daromadlari, bandlik darajasi, ijtimoiy infratuzilma va asosiy davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlari bilan chambarchas bog'liq ekanini ko'rsatilgan. Shuningdek, sog'liqni saqlash va ta'lim sohalariga yo'naltirilgan moliyaviy resurslar kambag'allikni kamaytirishda uzoq muddatli ijobiy ta'sirga ega ekanligi asoslab berilgan.

Adabiyotlar tahlili kambag'allikni qisqartirishda kompleks yondashuv, ya'ni moliyaviy resurslarni nafaqat daromadlarni qo'llab-quvvatlashga, balki kambag'allikni keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf etishga yo'naltirish zarurligini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Makolada analiz, sintez, induksiya va deduksiya, abstrakt-mantiqiy tahlil, ekonometrik modellar, qiyoslash, korrelyatsiya va regressiya hamda iqtisodiy-moliyaviy tahlil usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR


Kambag'allik zamonaviy dunyoda mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ijtimoiy hodisa sifatida kambag'allik hayotning eng muhim jabhalari bilan uzviy bog'liqligi bilan ajralib turadi va shu tariqa ijtimoiy adolatsizlik, umidsizlik hamda boshqa salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Moliyaviy dastaklarni faollashtirmasdan turib, kambag'allikni yengishda sezilarli muvaffaqiyatga erishish mumkin emas. Bu, avvalo, amal qilayotgan moliya tizimida mavjud bo'lib, ijtimoiy tangliklarga olib keluvchi kamchiliklarni bartaraf etish zarurati bilan bog'liqdir.

Bundan tashqari, kambag'allik muammosini hal etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur moliyaviy resurslarni jalb qilishni talab etadi. Ushbu muammoni bartaraf etishda moliyaviy vositalardan foydalanishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash, shuningdek, uni hal etish uchun moliyaviy resurslarni jamlashga qaratilgan aniq vazifalar tizimini shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun, eng avvalo, moliyaviy qo'llab-quvvatlash obyektini batafsil o'rganish talab etiladi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, mazkur muammo alohida ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Shu sababli, ushbu maqolaning maqsadi kambag'allikning turli shakllarini chuqur o'rganish va shu asosda mazkur ijtimoiy-iqtisodiy hodisani bartaraf etishga qaratilgan moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimining konseptual tamoyillarini shakllantirishdan iboratdir.

Kambag'allik hodisasini baholashda tanlangan yondashuvga qarab uning quyidagi shakllari ajratiladi: mutlaq va nisbiy; obyektiv va subyektiv; daromadlar hamda imkoniyatlar bo'yicha; vaqtinchalik va doimiy. Faqat turli baholash usullaridan foydalangan holda olingan natijalarni kompleks tarzda tahlil qilish orqali ushbu muammoning xususiyatlarini to'liq aniqlash mumkin.

Kambag'allikning har bir shaklini o'rganish ham kambag'allik darajasini, ham uning chuqurligini tahlil qilishga asoslanadi. Kambag'allik darajasi jamiyatda mazkur toifaga mansub aholi ulushini tavsiflaydi. Kambag'allik chuqurligini tahlil qilish esa uy xo'jaliklari resurslari hajmining belgilangan kambag'allik chegarasidan qay darajada chetlanishini aniqlash imkonini beradi. Mutlaq kambag'allikni baholash kambag'allikni bartaraf etishga qaratilgan moliyaviy yordam mexanizmlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi (1-rasm).



1-rasm. Eng muhim ijtimoiy ehtiyojlarni moliyaviy ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari

Ushbu yondashuvga asoslanib, kambag'allik muammosini asosan vaqt va makonda jamiyat faoliyatining o'ziga xos xususiyatlaridan mavhumlashtirib solishtirish mumkin bo'lib, bunda obyektiv miqdorni aniqlash odatda juda qiyin kechadi. Kambag'allikni bartaraf etishni moliyaviy qo'llab-quvvatlash jarayonida uning mutlaq darajasini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Avvalo, ushbu yondashuv asosida kambag'allarni aniqlash turli mamlakatlardagi kambag'allik darajasini solishtirish imkonini beradi. Ana shunday taqqoslashlar asosida xalqaro moliya institutlari kambag'allik darajasi eng yuqori bo'lgan mamlakatlarni aniqlaydilar, bu esa jahon hamjamiyatini moliyaviy resurslarni eng o'tkir ijtimoiy muammolarni hal etishga yo'naltirishga undaydi.

Bundan tashqari, kambag'allik darajasi ko'rsatkichi bo'yicha mamlakatlar reytingini shakllantirish milliy hukumatlarning ushbu mamlakatlarda kambag'allikni bartaraf etish uchun moliyaviy vositalardan foydalanish faoliyatini faollashtiradi. Mutlaq kambag'allik darajasini aniqlashning yana bir muhim afzalligi kam ta'minlangan aholiga yordam ko'rsatish hamda buning uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslar miqdorini aniqlashda moliyaviy yordamdan bevosita foydalanish imkoniyatining mavjudligidir. Buning uchun odatda yashash minimumi ko'rsatkichi qo'llaniladi.

Iqtisodiyotning siklik rivojlanishi va narxlarning doimiy o'zgarishi sharoitida mutlaq kambag'allik chegarasini ma'muriy yo'l bilan belgilash kambag'allik chegarasini o'zgartirishga real ehtiyojning yuzaga kelishi bilan zarur qarorning qabul qilinishi o'rtasida vaqt oralig'ining paydo bo'lishiga olib keladi. Shularni inobatga olgan holda, ushbu chiziqni real qiymatdan chetga suruvchi ham subyektiv, ham obyektiv omillar mavjudligini ta'kidlash mumkin. Bu holat mutlaq kambag'allik ko'rsatkichlarining buzilishiga sabab bo'ladi. Shu bois, kambag'allikni kamaytirish uchun moliyaviy yordamni shakllantirishda nisbiy kambag'allik ko'rsatkichlarini ham hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Ushbu yondashuv uy xo'jaliklari resurslarini aholining o'rtacha resurslari qiymatining muayyan ulushi yoki o'rtacha darajasi bilan taqqoslashni nazarda tutadi.

Kambag'allikni aniqlashning mazkur usuli uni tengsizlik ko'rsatkichidan ajratish imkonini beradi. Nisbiy kambag'allikni o'lchash jarayonida mutlaq kambag'allik darajasini aniqlashda yuzaga keladigan ayrim muammolardan qochish mumkin. Shunday qilib, nisbiy kambag'allik chegarasi uy xo'jaliklari resurslarining o'rtacha yoki median miqdorining ma'lum bir ulushi sifatida belgilanganligi sababli, yashash minimumini hisoblashdagi subyektivlik bilan bog'liq xavflar kamayadi. Bundan tashqari, nisbiy kambag'allik chegarasi aholining turmush darajasidagi o'zgarishlarni tezkor aks ettiruvchi dinamik ko'rsatkich hisoblanadi.

Tadqiqot jarayonida kambag'allikning xavf-xatarlari, uning mintaqaviy kontekstda tarqalishi va boshqa xususiyatlarini aniqlash mumkin. Ushbu ma'lumotlar yuqori darajadagi obyektivlik va ishonchlilik bilan tavsiflanadi. Nisbiy kambag'allik to'g'risidagi ma'lumotlarning afzalliklarini hisobga olgan holda, ko'plab rivojlangan mamlakatlar ushbu usuldan foydalangan holda rasmiy kambag'allik chegarasini belgilaydilar. Masalan, Yevropa Ittifoqida naqd pul daromadi o'rtacha pul daromadining 60 foizidan kam bo'lgan shaxslar kambag'al deb hisoblanadi. MDHning qator davlatlari ham xuddi shunday yondashuvdan foydalanadilar [1].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, moliyaviy resurslarni nafaqat aholining yashash minimumini ta'minlashga, balki kambag'allikni keltirib chiqaruvchi omillarning ta'sirini minimallashtirishga yo'naltirish maqsadga muvofiqdir. Nisbiy kambag'allik to'g'risidagi ma'lumotlar, birinchi navbatda, kambag'allikni bartaraf etish uchun moliyaviy yordamni umumiy tartibga solishda hisobga olinishi lozim. Shuningdek, nisbiy kambag'allik haqidagi ma'lumotlar mintaqaviy rivojlanishni moliyalashtirishda muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Bundan tashqari, nisbiy kambag'allik



darajasi va chuqurligi ko'rsatkichlari jamiyatdagi qayta taqsimlash darajasini moslashtirish bo'yicha qarorlar qabul qilish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Shunday qilib, ushbu ko'rsatkichlar dinamikasiga asoslanib, nisbiy kambag'allikni bartaraf etish uchun moliyaviy qo'llab-quvvatlashning samaradorligi to'g'risida xulosa chiqarish mumkin. Ijtimoiy ehtiyojlarni moliyaviy ta'minlash jarayonida ushbu jarayonning aholi tomonidan qanday baholanishi alohida ahamiyatga ega. Shu bois, rivojlangan mamlakatlarning aksariyatida kambag'allikni subyektiv baholash usullaridan foydalaniladi. Ushbu tadqiqotlar o'zini kambag'al deb hisoblaydigan shaxslar ulushi haqida ma'lumot beradi.

Natijada, kambag'allikning subyektiv ko'rsatkichi dinamikasi mamlakatda kambag'allikni bartaraf etishni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning umumiy samaradorligini baholashda obyektiv indikator sifatida qo'llanilishi mumkin. Kambag'allikni samarali moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun ushbu hodisaning barcha omillariga kompleks ta'sir ko'rsatish muhim ahamiyat kasb etadi. Kambag'allikning barcha jihatlarini eng to'liq o'rganish zamonaviy keng talqinga mos ravishda mahrumlik usulini qo'llash orqali amalga oshirilishi mumkin. Ushbu yondashuv hayotning turli sohalarida mahrumlik darajasi to'g'risida batafsil ma'lumot olish imkonini beradi.

Shu sababli, bizning fikrimizcha, kambag'allik muammosini kompleks hal etish uchun moliyaviy qo'llab-quvvatlashning konseptual yondashuvlarini shakllantirishda kambag'allikni turmush sharoitlari bo'yicha o'rganish natijalariga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Kambag'allikni turmush sharoiti bo'yicha o'rganish natijalari boshqa usullarga nisbatan bir qator afzalliklarga ega. Xususan, shaxslarga kambag'allik mezonlarini mustaqil belgilash huquqi beriladi, bu esa kambag'allik belgilarini kompleks tarzda tushunish imkonini yaratadi. Kambag'allik parametrlarining keng doirasini shakllantirish ushbu hodisaning barcha jihatlarini to'liq hisobga olishni ta'minlaydi.

Kambag'allikni turmush sharoiti bo'yicha o'rganish tartibi qondirilmagan ehtiyojlar tarkibi haqida ishonchli ma'lumot olish imkonini beradi. Natijada, uy xo'jaliklarining moddiy farovonligini oshirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqroq belgilash mumkin bo'ladi. Aholining turmush sharoitini o'rganish natijalariga ko'ra, sog'liqni saqlash, ta'lim va boshqa muhim ijtimoiy xizmatlar bilan ta'minlanishdagi muammolar aniqlanadi hamda shu asosda ushbu sohalarini moliyaviy ta'minlashni tartibga solish imkoniyati yuzaga keladi.

Kambag'allikni bartaraf etishni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning konseptual asoslarini belgilashda asosiy ijtimoiy ehtiyojlar tarkibini aniqlash muhim ahamiyatga ega bo'lib, aynan ushbu ehtiyojlarning qondirilmaganligi kambag'allikning asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. Buning uchun batafsil sotsiologik tadqiqotlar o'tkaziladi, ular jarayonida aholi eng muhim ehtiyojlar ro'yxatini mustaqil ravishda belgilaydi. Moliyaviy resurslarni kambag'allikni bartaraf etishga yo'naltirishning ustuvor yo'nalishlarini asoslash uchun turmush sharoitining eng muhim omillarini aniqlash zarur, chunki aynan ularning yetishmasligi kambag'allikka olib keladi.

Yuqorida keltirilgan asosiy mahrumliklar ro'yxatidan xulosa qilish mumkinki, kambag'allikning asosiy sabablari zarur oziq-ovqat mahsulotlari, eng zarur sanoat tovarlari va xizmatlarini sotib olish uchun moliyaviy resurslarning yetishmasligi bilan bog'liqdir. Shu sababli uy xo'jaliklari yashash minimumidan kam bo'lmagan miqdorda moliyaviy resurslarga ega bo'lishi lozim (1-rasm).

Iqtisodiyotning faoliyat ko'rsatish qonuniyatlari va jamiyatning institutsional muhitini inobatga olgan holda, uy xo'jaliklarining moliyaviy resurslari ehtiyojlarning faqat bir qismini qondirishi mumkinligi xulosasiga kelish mumkin. Bunday xususiyatlar, avvalo, ijtimoiy infratuzilma – yo'llar, ko'priklar, jamoat transporti, savdo va xizmat ko'rsatish obyektlariga xosdir. Shu bois, eng zarur ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishni moliyaviy ta'minlash kambag'allikni minimallashtirishning muhim omili hisoblanadi.

Kambag'allik fenomenining zamonaviy talqini hamda mahrumlik tarkibining ijtimoiy ta'rifini hisobga olgan holda, qondirilish imkoniyatlari har bir inson uchun bir xil bo'lishi zarur bo'lgan ehtiyojlar guruhini ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiqdir.

Namangan viloyatida kambag'allikni qisqartirish holati bo'yicha aniq xulosaga kelish uchun 2020-2024-yillarda Statistika agentligi ma'lumotlari asosida Namangan viloyatida kambag'allik darajasi (QD) o'zgarishiga aholi jon boshiga real umumiy daromadlar (AHJD) hamda mahalliy byudjetdan kambag'allikni qisqartirishni moliyalashtirish (MBQQ) hajmining ta'sirini ekonometrik tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Tanlangan omillar ta'sirida dastlab 1-senariy bo'yicha omillar o'rtasidagi juft va xususiy korrelyatsion koeffitsiyentlar aniqlanadi hamda shu orqali ularning to'g'ri tanlanganligi isbotlanadi (1-jadval) [2].

1-jadval. 1-senariy bo'yicha Namangan viloyatida kambag'allik darajasi o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarning korrelyatsiya koeffitsiyenti qiymatlari

	QD	MBQQ	AHJD
QD	1		
MBQQ	-0,93218	1	
AHJD	-0,9602	0,974977	1




Jadval qiymatlaridan ko'rinadiki, natijaviy omil – Namangan viloyatida kambag'allikni qisqartirish darajasi – tanlab olingan har ikki omil bilan, xususan, klasterlar ishlab chiqarish hajmi (aholi jon boshiga real umumiy daromadlar – AHJD, $r\{(QD, AHJD)\} = -0,9602$) hamda soha asosiy kapitaliga investitsiyalar hajmi (MBQQ, $r\{(QD, MBQQ)\} = -0,93218$) bilan kuchli va teskari bog'liqlikka ega. Bu esa har ikki omil hajmining oshirilishi natijaviy omil – kambag'allik darajasining ijobiy o'zgarishiga, ya'ni kamayishiga olib kelishini ko'rsatadi.

Shuningdek, tanlangan omillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik $r\{(x_1, x_2)\} < 0,8$ sharti asosida tekshirilgan bo'lib, $r\{(x_1, x_2)\} = 0,97497$ qiymati ushbu shartni qanoatlantirganligi sababli omillar o'rtasida multikollinearlik mavjud emas, degan xulosa chiqarish mumkin. Shu bois modellashtirish jarayonini davom ettirish maqsadga muvofiqdir.

Prognoz natijalariga ko'ra, jadvalda keltirilgan ma'lumotlar asosida 2027-yilga kelib 1-ssenariy bo'yicha Namangan viloyatida aholi jon boshiga real umumiy daromadlar 2024-yilga nisbatan 271,5 ming so'mga oshishi kutilmoqda. Natijada viloyatda kambag'allik darajasi 6,5 foizgacha pasayishi prognoz qilinmoqda. Bu esa, o'z navbatida, mahalliy byudjetdan kambag'allikni qisqartirishga yo'naltiriladigan moliyalashtirish mablag'lari hajmining 2027-yilga kelib 1 432,8 mlrd so'mga kamayishini ta'minlashi mumkin.

Shuningdek, Namangan viloyatida kambag'allik darajasining pessimistik va optimistik prognoz ko'rsatkichlarini 2-rasm orqali kuzatish mumkin.



2-rasm. 1-ssenariy asosida Namangan viloyatida kambag'allik darajasi 2025-2027-yillarda pessimistik va optimistik holatlaridagi o'zgarishining tendensiyalari

Har bir ssenariy bo'yicha amalga oshirilgan ekonometrik tahlil natijalariga asoslanib xulosa qiladigan bo'lsak, Namangan viloyatida 2-ssenariy doirasida muayyan omillarga alohida e'tibor qaratish zarur. Xususan, aholining umumiy daromadlari tarkibida ijtimoiy transfertlar ulushini oshirish hamda ishsizlik darajasini pasaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni kuchaytirish lozim. Shuningdek, 3-ssenariy bo'yicha Namangan viloyatida belgilangan o'rtacha ish haqining oshishi kambag'allik darajasining keskin pasayishiga olib kelishini kuzatish mumkin. Bu esa iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha hisoblangan oylik ish haqini oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatadi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan yaqinda o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari sog'liqni saqlash sohasida iqtisodiy tengsizlikni kamaytirish katta ijtimoiy va iqtisodiy samaraga ega ekanligini tasdiqlaydi. Mazkur tashkilot materiallariga ko'ra, sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish imkoniyatidagi tengsizlikning salbiy oqibatlari iqtisodiyotning samarali ishlashiga to'sqinlik qiladi, ijtimoiy xarajatlarning ortishiga va ijtimoiy farovonlikning pasayishiga olib keladi [3].

Shunday qilib, jamiyatning barcha a'zolari uchun zarur tibbiy xizmatlardan teng foydalanish imkoniyatini ta'minlash nafaqat axloqiy jihatdan, balki iqtisodiy nuqtai nazardan ham o'zini oqlaydi. Zamonaviy jamiyatda inson qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishda aholining bilim darajasi muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim xizmatlari shaxslarda zarur bilim va ko'nikmalarni shakllantirib, ularning muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat yuritishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ta'lim sezilarli ijobiy tashqi ta'sirlarga ham ega. Chunki inson jamiyatning samarali va mas'uliyatli a'zosi bo'lishi uchun zarur bo'lgan asosiy ko'nikmalarga ega bo'lmasa, bundan butun jamiyat yutqazadi [4].



Ta'kidlash joizki, foydalanish imkoniyati har bir shaxs uchun teng bo'lgan eng muhim davlat xizmatlari tarkibi milliy qadriyatlar ta'sirida shakllangan institutsional muhit bilan belgilanadi. Jamiyat a'zolariga bepul asosda ko'rsatiladigan va tegishli sifatga ega bo'lgan davlat xizmatlarining keng doirasi mamlakatda kambag'allikni minimallashtirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi shubhasizdir. Fuqarolarga davlat xizmatlarini ko'rsatish, aholining ko'pchiligi fikriga ko'ra katta foyda keltiradigan, biroq individual shaxslar tomonidan kam baholanishi mumkin bo'lgan jamoat tovarlaridan foydalanish imkoniyatini ta'minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida bayon etilgan fikrlarni umumlashtirgan holda, quyidagi xulosalar va umumlashmalarni keltirish mumkin:

1. Uy xo'jaliklarining asosiy ehtiyojlarini qondirish uchun yetarli moliyaviy ta'minlanish muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning yetishmasligi kambag'allikning asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. Shu bois uy xo'jaliklarining pul resurslarini yashash minimumidan yuqori darajada shakllantirishga yo'naltirish zarur. Mazkur moliyaviy resurslar, bir tomondan, eng zarur ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga, ikkinchi tomondan, foydalanish mumkin bo'lgan muhim davlat xizmatlarini taqdim etishga, shuningdek, aholining uy-joyga bo'lgan minimal ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilishi lozim.

2. Kambag'allikning har bir jihatini chuqur o'rganish natijalari aholining turmush sharoitini yaxshilashga qaratilgan aniq chora-tadbirlarni moliyalashtirishda samarali uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi. Kambag'allikni bartaraf etish uchun moliyaviy ta'minotning yetarli darajada shakllantirilishi ushbu ijtimoiy hodisaning har bir ko'rinishining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda moliyalashtirish choralariga kompleks yondashuvni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, kambag'allikni bartaraf etishni moliyaviy qo'llab-quvvatlash natijalarini baholash turli xil kambag'allik xususiyatlarining dinamikasini aks ettiruvchi bir qator ko'rsatkichlardan foydalanishni nazarda tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Синисина И. Бедность и пути преодоления в странах СНГ // Эковест. 2016. № 5. С. 135-170.
2. Mirzaxalikov B.B. Kambag'allik muammosi va unga qarshi kurashish masalalari. "Tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish va zamonaviy loyihalarni amalga oshirishda iqtisodiyotning dolzarb masalalari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami NamMTI, 2024, 230 b.
3. Mirzaxalikov B.B. Kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat dasturlari jamiyat hayotidagi dolzarb muammolarni yechimi sifatida. "Oziq-ovqat mahsulotlarini xavfsizligini ta'minlash: global muammolar va yangi innovatsion yechimlari" respublika ilmiy-amaliy anjuman. Namangan, NDTU, 2025.-B. 234-237.
4. Системы здравоохранения, здоровье и благосостояние: оценка аргументов в пользу инвестирования в системы здравоохранения: Материалы Европейской министерской конференции ВОЗ по системам здравоохранения "Системы здравоохранения – здоровье и благосостояние", Таллинн, Эстония, 25-27 июня 2018 г. Таллин, 2018. 76 с.
5. Хиллман Ари Л., Дженкнер Эва. Образование детей в бедных странах / Вопросы экономики 33. – Международный валютный фонд. 2021. 16 с



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
